

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA BA’ZI EFEMIZMLAR: O‘XSHASHLIKLAR VA FARQLAR

Mahammadjonova Dildoraxon Ahmadjon qizi

Farg’ona davlat universiteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna**

FDU, f.f.f.d. (PhD), katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Tilshunoslikda efemizm hodisasi qadimdan e’tiborga olingan bo’lsa-da, zamonaviy davrda bu jarayon axborot tezligi, axloqiy me’yorlar, senzura va madaniy sezgirlik tufayli yanada murakkablashib bormoqda. Xususan, o‘lim, kasallik, siyosat kabi mavzular ko‘pincha efemistik shaklda ifodalanadi.

Ushbu maqolada efemizm tushunchasi nazariy jihatdan sharhlanadi, uning ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘xshash hamda farqli xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy adabiyotlardan, ommaviy axborot vositalaridan olingan misollar orqali efemizmlarning semantik yumshatish funksiyasi yoritiladi

Kalit so‘zlar: efemizm, ingliz tili, o‘zbek tili, semantik yumshatish, tabu, ifoda, ibora.

Abstract: Although the phenomenon of euphemism has long been considered in linguistics, in modern times this process has become more complicated due to the speed of information, moral standards, censorship and cultural sensitivity. In particular, topics such as death, illness, politics are often expressed in euphemistic form. This article provides a theoretical interpretation of the concept of euphemism, analyzes its similar and different features in English and Uzbek. It also highlights the semantic softening function of euphemisms through examples taken from fiction and the media

Keywords: euphemism, English language, Uzbek language, semantic softening, taboo, expression, phrase

Har bir til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning madaniyati, axloqiy qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi hodisadir. Shunday til birliklaridan biri efemizm bo‘lib, u insoniyatning eng nozik, og‘riqli yoki ijtimoiy jihatdan noqulay hisoblangan

tushunchalarni yumshoq, bilvosita va madaniy doirada ifoda etishga xizmat qiladi. Efemizmlar orqali og‘ir haqiqatlar nafis va bosiq tarzda yetkaziladi, bu esa tilning ijtimoiy va madaniy funktsiya bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. A.A.Reformatskiy “Evfemizmlar taqiqlangan (tabulangan) so‘zlar o‘rniga qo‘llanishga ruxsat berilgan so‘zlar” deya ta’rif beradi. “Лингвистический энциклопедический словарь”da esa “Evfemizm – bu so‘zlovchi nazarida qo‘pol, noqulay bo‘lgan so‘z va ifodalar o‘rnida qo‘llangan, ularga ma’nodosh bo‘lgan emotsional betaraf so‘z va ifodalar” deyiladi.

Ingliz tili tarixini o‘rgangan olim R.Byorchild Choser nazmining evfemik birliklari misolida tadqiqot olib borar ekan, evfemizm she’riyatning juda qulay uslubiy vositasi ekanligini e’tirof etadi. R.Byorchild Choserni birinchi bor o‘z ijodida intim munosabatning evfemik shaklini berganligini ta’kidlaydi. Shekspir esa bu yo‘nalishni buzgan holda, o‘zining obrazlarini his-hayajonli birliklar bilan ifodalab, evfemizmdan faqatgina stilistik bo‘yoqni kuchaytirish vositasi sifatida foydalanadi.

Efemizmlar turlicha tasniflanadi. Birinchi navbatda, semantik yoki ma’naviy efemizmlar mavjud bo‘lib, ular bevosita so‘zning o‘rniga yumshatilgan sinonim shaklida qo‘llanadi. Masalan, “o‘ldi” o‘rniga “vafot etdi”, “hayotdan ko‘z yumdi”, “olamdan o‘tdi” kabi ifodalar ishlatiladi. Ingliz tilida esa bunday efemizmlarga “passed away”, “gone west”, “no longer with us” kabi iboralar kiradi. Bu turdagi efemizmlar eng ko‘p ishlatiladiganlar sirasiga kiradi.

Ijtimoiy efemizmlar esa odatda kishining kasbi, maqomi yoki jismoniy holatini yumshoqroq, obro‘liroq tarzda ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Masalan, “ko‘cha tozalovchi” o‘rniga “obodonlashtirish xodimi” yoki “yordamchi texnik mutaxassis” kabi atamalar ishlatiladi. Ingliz tilida “janitor” o‘rniga “custodial engineer”, “housewife” o‘rniga “domestic manager” iboralar misol bo‘ladi.

Siyosiy efemizmlar asosan axborotni yumshatish, senzura talablariga moslashtirish yoki voqeani ijobiyroq talqin qilish maqsadida qo‘llanadi. Masalan, “ishdan haydaldi” o‘rniga “optimallashtirish natijasida bo‘shatildi”, yoki “urush

boshlanishi” o‘rniga “harbiy amaliyotlar” iborasi ishlatiladi. Ingliz tilida “collateral damage” iborasi urushdagi tinch aholining halok bo‘lishini yashirish uchun ishlatiladi

Quyida “o‘lmoq” fe’li orqali efemizmning ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘xshashliklari ko‘rib chiqiladi: “o‘lmoq” tushunchasining evfemalarini badiiy asarda muallif qahramon yoki o‘z tilidan turli vaziyat va shaklda ifodalaydi. Salbiy yoki hajviy qahramon nutqidan ijobiy, madaniyatli obraz nutqi farqlangani bois, o‘z navbatida, evfemik ma’nomalar ham bir necha turga ajraladi. Ma’lum guruh kishilarigagina tushunarli bo‘lgan argotik evfema, shu voqelikka aloqador suhbatdoshgagina ma’lum qarg‘ish, haqoratni aks etuvchi evfemik birliklar farqlanadi. Bular sinonimik qatorni tashkil qilgan bo‘lsa-da, birlamchi ma’no bilan ko‘chim orasidagi bog‘liqlik ma’lum ma’noda uzilganini kuzatish mumkin.

O‘limni ifodalashda efemizmlar ingliz tili va o‘zbek tili o‘rtasida o‘limni ifodalashda ishlatiladigan efemizmlar juda o‘xshash. Har ikkala tilda ham, o‘limni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytmaslik, uni yumshoqroq tarzda ifodalash uchun maxsus ifodalar ishlatiladi. Ingliz tilida “passed away” yoki “gone to a better place”, o‘zbek tilida esa “vafot etdi”, “bandalikni bajo keltirdi” kabi muloyim ifodalar ishlatiladi.

O‘lim va kasalliklar haqidagi efemizmlar ingliz tilida "passed away" kabi efemizm keng qo‘llanilsa, o‘zbek tilida esa bu ifodaning o‘rniga ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri “vafot etdi” ishlatiladi. O‘zbek tilida o‘lim haqida gapirganda, nozik ifodalar ishlatish ko‘proq diniy va madaniy kontekstga bog‘liq bo‘ladi. Ingliz tilida esa “passed on” yoki “gone to sleep” kabi boshqa alternativalar ko‘proq ishlatiladi.

Xushmuomalalik va hurmatni ifodalash o‘zbek tilida ko‘pincha hurmat yoki ijtimoiy mavzularda muloyimlik ko‘rsatish uchun maxsus so‘zlar va qo‘shimchalar ishlatiladi. Misol uchun, yoshi katta odamni “keksaygan” yoki “katta yoshdagi” deya ta’riflash o‘rni borki, bu ingliz tilida faqat “elderly” yoki “senior” sifatida ishlatiladi.

Efemizmlar nafaqat o‘lim, balki boshqa hayotiy holatlar haqida ham qo‘llaniladi. Masalan, ingliz tilida “unemployed” (ishga ega emas) o‘rniga “between jobs”, “laid off” kabi yumshoq iboralar ishlatiladi. O‘zbek tilida esa “ishga ega emas” o‘rniga “ish izlayotgan”, “bo‘sh” kabi iboralar afzal ko‘riladi. Shu tarzda efemizm nafaqat

semantik, balki pragmatik va sotsiolingvistik funktsiyani ham bajaradi – ya’ni tinglovchining hissiyotini inobatga olib, ijtimoiy munosabatni ehtiyotkorlik bilan shakllantiradi.

Shuningdek, efemizmlar madaniy xususiyatlarga ham bog‘liq. Har bir til o‘z jamiyatining qadriyatlariga mos ifodalarni shakllantiradi. Masalan, ingliz tilidagi “mentally challenged” (aqliy qiyinchiliklarga ega) o‘zbek tilidagi “aqlan zaif” yoki “rivojlanishida muammo bor” degan iboralarga mos keladi. Bunda til orqali shaxsga hurmat saqlangan holda salbiy holatni yumshoq tarzda aytishga harakat qilinadi.

Badiiy adabiyotlarda esa efemizmlar obrazli va estetik funktsiyani ham bajaradi. Ular asarga yumshoqlik, ko‘rsatmaslik orqali ifoda kuchi, ruhiy ta’sir beradi. Misol uchun, Ernest Hemingueyning "The Old Man and the Sea" asarida “he was gone” iborasi o‘limni bevosita emas, balki hissiy ohangda bildiradi. O‘zbek adabiyotida esa Abdulla Qahhor yoki Cho‘lpon asarlarida “qudratli olamga ketdi”, “bu dunyo bilan vidolashdi” kabi yumshoq ifodalar tez-tez uchraydi.

Quyida badiiy adabiyotlardan olingan misollar orqali efemizmlarni ko‘rib chiqamiz: “The same sophisticates who look down their noses at little boys' room and other euphemisms of that ilk will nevertheless say that they are going to the bathroom when no bath is intended, that Mary has been sleeping around even though she has been getting precious little shut-eye, that John has passed away or even departed (as if he'd just made the last train to Darien), and that Sam and Janet are friends, which sounds a lot better than illicit lovers.” Bu jumlada “passed away” iborasi Johnning vafot etganini semantik yumshatish uchun ishlatgan. “Departed” so‘zi ham “vafot etdi” ma’nosini bildiradi, lekin parcha muallifi istehzoli tarzda bu so‘zni tanqid qilmoqda. U “departed” deyilganida, odam hayotdan ketgani emas, “oxirgi poyezdni olib Darien shahriga ketgandek” tuyulishini hazil bilan aytmoqda. Ya’ni, bu so‘z ham o‘limni yumshatib, go‘yoki oddiy jo‘nashdek ko‘rsatadi.

“Atticus said Calpurnia had more education than most colored folks. When her mother passed away, she went to live with her mother's people in a small town near

Mobile.” Bu jumlada “passed away” iborasi Calpurnianing onasi vafot etganini muloyim tarzda ifodalash uchun ishlatilgan.

E. Corri in his *Thirty Years a Boxing Referee* (1915) greeted his end cheerfully because he would "now be in the company of many dear old friends now “gone west.” The expression mirrors the fact that traditionally the east, where the sun rises, has been considered the place of birth and the west has been seen as the region where the sun and man's life set. Bu yerda yozuvchi E. Corri o‘zining vafot etgan eski do‘stlarini eslab, ularning hammasi “g‘arbiga ketgan”, ya’ni “vafot etgan” deb aytmoqda. O‘zi ham ularga qo‘shilayotganini aytib, o‘limni quvonch bilan qabul qilayotganini bildiradi.

Bu iboralar turli ohang va kontekstlarda ishlatiladi: ayrimlari diniy (masalan, resting in peace, eternal rest), ba’zilari norasmiy va ba’zan yumoristik (pushing up daisies), ayrimlari esa shunchaki hissiy ta’sirni kamaytirish uchun tanlanadi (slipped away, gone). Ayniqsa, badiiy adabiyotlarda bu efemizmlar ko‘p ishlatiladi, chunki ular o‘quvchining tuyg‘ulariga bevosita ta’sir qiladi va o‘lim mavzusini chiroyli ifoda etadi.

Shunday qilib, efemizmlar nafaqat tilning boyligini, balki insonning o‘ta nozik hissiyotlarga bo‘lgan e’tiborini ham namoyon etadi. Bunday iboralarni o‘rganish bizga til madaniyatini, insoniylikni va estetik ifoda usullarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova X. O‘zbek tilida efemizm va disfemizm.—Bookmany print:Tosh,2022
2. Rawson, H. A dictionary of Euphemisms and other doubletalk. Crown Publishers,1981.
3. Neaman, J. S. va Silver, C. G. Kind Words: A Thesaurus of Euphemisms. Facts on File, 1990.